



## O'Zga Til Guruhlarida "Tabiat Va Inson" Mavzusini Innovatsion Texnologiyalar Asosida O'Qitish

**Annotatsiya:** Mazkur maqola oliy ta'limning o'zga til guruhlarida o'zbek tili fanini innovatsion texnologiyalar asosida o'qitilishi masalasiga bag'ishlanadi. Yoshlarni barkamollik ruhida kamol toptirish, tabiat, borliqqa munosabat, hayotga muhabbat uyg'otish borasida "Tabiat va inson" mavzusining o'rni beqiyos. Bu borada interfaol darslarni axborot texnologiyalaridan unumli foydalangan holda zamon talabiga javob beradigan shaklda qiziqarli tashkil etish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shunga ko'ra, ushbu maqolada metodik yo'nalashga e'tibor qaratildi.

**Kalit so'zlar:** tabiat, inson, ekologik muammolar, Orol fojiasi, intervyu olish, intervyu berish, o'zbek tilida so'z boyligini oshirish, bilish, eshitish, gapirish, imlo, mustahkamlash, munozara.

**Information about the authors**

**Dedaxanova Muazzam**  
Ph.D., Toshkent moliya instituti o'qituvchisi  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

**Kirish (Introduction).** Oliy ta'limda boshqa tilga ixtisoslashgan guruhlariga amaliy mashg'ulot sifatida bakalavriatning 1-bosqichida o'zbek tili fani o'qitilishi barchamizga ma'lum. Mustaqil tafakkur qila oluvchi, davlat tilida aniq, ravon gapira oladigan yoshlardan yuqori saviyadagi ilmiy salohiyatga ega kadrlar, buyuk ishbilarmon, iqtisodchi, banker, tarjimon, elchilar chiqishi tabiiy. O'zbekiston yuksalishi uchun ana shunday bilimli, yangicha innovatsion g'oyalar tashabbuskori kerak.

Toshkent moliya institutining o'zga til guruhlarini uchun mo'ljallangan o'zbek tili fani dasturida "**Tabiat va inson**" mavzusini o'qitishdan quyidagi maqsad ko'zlangan:

**Og'zaki nutq:** Mavzuga oid matnni o'qib tushunish. Matndagi termin va iboralarning ma'nosini izohlash. Matnni ijodiy so'zlash.

**Yozma nutq:** Dunyoda va O'zbekistonda mavjud ekologik muammolar haqida esse yozish. "Orol fojiasi" mavzusida taqdimot tayyorlash. O'zbekiston ekologik harakatining faoliyati to'g'risida ma'lumot tayyorlash.

**Grammatika:** Intervyu olish va intervyu berish qoidalari.

**Metodlar (Methods).** Darsdan ko'zlangan maqsadlarga erishish uchun amaliy mashg'ulot ssenariysini "O'ZBEGIM" dasturi [1, 108] asosida turli metodlarga asoslanib, quyidagicha tashkillashtirishimiz mumkin:

### "O'ZBEGIM" DASTURI

T/r	Reja	Inglizcha tarjimasi	Bajariladigan ishlar
I.	Bilish, lug'at boyligini oshirish	Learning, Vocabulary	O'Z(uz)bek tilida so'z boyligini oshirish, "Tabiat va inson", "Intervyu olish va intervyu berish qoidalari" mavzulari yuzasidan ma'lumotlarni bilish va to'g'ri baho berish, adabiy tilda tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirish.



II.	Eshitish	Listening	“Agar biz hozir turmush tarzimizni o‘zgartirmasak, hayotimiz xavf ostida...” ekani haqidagi video lavhasini ko‘rib, xulosa chiqarish va “Chumchuqlarga o‘lim: Xitoyda qushlarga keltirilgan qiron uchun tabiat qanday o‘ch olgandi?” voqeasini audiodan eshitib, munosabat bildirish orqali muammoli vaziyatni yuzaga keltirish
III.	Gapirish	Speaking	Jurnalist va talaba (yoki rahbar) sifatida 2 ta-2 ta bo‘lib, intervyu olish va intervyu berish.
IV.	Imlo – yozish	Writing	Rasmdagi holatni tasvirlab berish
V.	Mustahkamlash	Strengthening	Savol-javob, test

**Natija va munozara (Results, and Discussion).** Yuqoridagi jadvalga asoslangan holda darsni quyidagicha yo‘lga qo‘yish mumkin:

#### I. O‘zbek tilini B-ilish (Learning, Vocabulary)

Amaliy mashg‘ulot quyidagi ma‘lumot orqali muammoli vaziyatni yuzaga keltirish bilan boshlanadi: O‘tkir Hoshimov “Daftar hoshiyasidagi bitiklar” kitobida shunday deydi: “Kiyik och qolmaslik uchun ko‘kat yeydi. Ammo bir-birini o‘ldirmaydi. Sher och qolmaslik uchun kiyikni yeydi. Ammo bir-birini o‘ldirmaydi. Odam ...” esa... (“Tabiat gulto‘ji”).

*Adib bu o‘rinda nima demoqchi? Tabiat va inson o‘rtasida qanday bog‘liqlik bor, deb o‘ylaysiz?*

So‘ng darslikdagi mavzuga oid matn mohiyatini taqdimot orqali tushuntirib, undagi atama va iboralar ma‘nosini izohlash so‘raladi.

#### II. E-shitish – Listening

Mulohaza uchun “Agar biz hozir turmush tarzimizni o‘zgartirmasak, hayotimiz xavf ostida...” ekani haqidagi video lavhadan parcha (<https://youtu.be/mfbEAVe4OIM>) qo‘yib, unda “Yil odami” deya ta‘riflangan yoshgina qizcha Gretaga munosabat bildirish va “Tabiat bilan bog‘liq muammolarni hal etish kimga bog‘liq: har bir odamgami yoki faqat butun jamiyat, davlat hal qiladigan masalami?” – degan savollarga talabalar o‘z mustaqil mulohazalarini bildirishlari so‘raladi.

Shundan so‘ng audio orqali “Chumchuqlarga o‘lim: Xitoyda qushlarga keltirilgan qiron uchun tabiat qanday o‘ch olgandi?” mavzusidagi voqea eshittirilib, bahs-munozara tashkil etiladi (<https://kun.uz/uz/news/2022/03/20/chumchuqlarga-olim-xitoyda-qushlarga-keltirilgan-qiron-uchun-tabiat-qanday-och-olgan>).

Munozara davomida barcha chumchuq yo‘q qilingach, tabiatdagi muvozanat buzilib, shilliq qurt va chigirtkalar bosib ketgani; tabiatda har bir jonzo‘tning o‘z o‘rni borligi va butun koinot o‘zaro zanjirdek bir-biriga bog‘liqligi; qaror qabul qilgan olim va rahbarlarga munosabat bildirish nazarda tutiladi.

**Grammatik mavzu:** “Intervyu olish va intervyu berish qoidalari” xususidagi nazariy ma‘lumotlarni amaliyotga bog‘lagan holda taqdimot orqali tushuntiriladi.

#### III. G-apirish (Speaking)

“Talaba/rahbar – jurnalist” sifatida 2 ta-2 ta bo‘lib, nima uchun shu sohani tanlaganlari yoki kelajakda orzu qilgan mansablariga erishgan vaziyat asosida talabalar jonli muloqotga kirishib, intervyu tashkillashtirishadi.



#### IV. I-mlo (Writing). Matn yaratish

Quyidagi rasm asosida bog‘lanishli matn tuzish bo‘yicha ijodiy fikrlash talab qilinadi.



Unga ko‘ra jurnalistning savoliga javob berayotgan rahbar yoki xodim qay tarzda shunday vaziyatga tushishi mumkinligini talabalar ochib berishlari zarur.

#### V. M-ustahkamlash (Strengthening)

Savol-javob, test savollari ustida ishlash.

#### Uyga vazifa:

1. Dunyoda va O‘zbekistonda mavjud ekologik muammolar va uning yechimi haqida esse yozish.
2. “Orol fojiasi” mavzusida taqdimot tayyorlash.
3. O‘zbekiston ekologik harakatining faoliyati yoki tanlagan sohadagi muammoga yechimlar borasida mutaxassis bilan intervyu tayyorlash.

**Xulosa (Conclusion).** Amaliy mashg‘ulotlarda talabalarni mustaqil fikrlash, davlat tilida aniq, ravon gapira olish ko‘nikmasini shakllantirish dolzarb ahamiyatga ega. Chunki Yangi O‘zbekiston kelajagi uchun oliy ma‘lumotni tasdiqlovchi diplomni olgan har qanday bitiruvchi emas, balki yuqori saviyadagi ilmiy salohiyatga ega kadrlar, buyuk iqtisodchi, ishbilarmon, tarjimon, bilimli elchilar, yangicha innovatsion g‘oyalar tashabbuskori zarur.

#### Foydalanilgan adabiyotlar (References):

1. Dedaxanova M.A. Oliy ta’limda o‘zbek tili fanini noan’anaviy usulda o‘qitishning ahamiyati. Interpretation and researches. // Volume 1 issue 4 | ISSN: 2181-4163 | UIF-2023: 8.2. (<https://doi.org/10.5281/zenodo.7748110>) – B. 107-110.